

Mavzu: Ikkinchi darajali bo'laklar

Aa Shahar kōchalari
tongda chiroyli
kōrinadi.

shahar



Jarangsiz undoshlarni tushirib qoldirsangiz, hunar egalaridan birining nomini bilib olasiz.

PDFUSRKATDCHGXOHRQ

- Shu so'z ishtirokida gap tuzing. Gap bo'laklarini aniqlang.

Ikkinchi darajali bo'laklar bosh bo'laklar bilan bog'lanib, gapning mazmunini to'ldiradi.



1-mashq. Gaplarni o'qing.



Poyezd yurdi.



Uy qurildi.



Gullar ochildi.

- Berilgan gaplarni ikkinchi darajali bo'laklar bilan to'ldiring.

Namuna: Uy qurildi. Shahrimizda baland, chiroyli uy qurildi.



2-mashq. Ish-harakatni bildirgan soʻzlar (kesim)ni ish-harakat bajaruvchisi (ega) bilan moslashtirib, gap tuzing.



O'quvchi

Munisa

Farrosh

Dehqon

Sportchi²

yugurdi.

ekdi.

yozdi.

supurdi.

tozaladi.



- Gapni ikkinchi darajali boʻlak va soʻzlarni oʻzaro bogʻlovchi qoʻshimchalar yordamida toʻldirib yozing.

Foydalanish uchun soʻzlar: maydon, hovli, koʻchat, xona, daftar.



3-mashq. Ajratib koʻrsatilgan soʻzlar ishtirokida gaplar tuzing.

Teskari oʻqiganda

“Qoʻy”ni ters oʻqisang,
 “Yoʻq” boʻlib qolar.
 “Zog” birdan “gʻoz” boʻlib
 Gʻoʻdayib olar.
 “Kit” esa “tik” holda
 Suzadi sekin,

“**Kiyik**” va “kuchuk”-chi,
 Oʻzgarmas lekin.
 Qay yondan oʻqisang
 Bir xil “**quduq**” ham,
 Qiziq-a, oʻzgarmas
 Oʻzi “qiziq” ham.

Tursunboy Adashboyev

- Gap boʻlaklari asosida tahlil qiling.



4-mashq. Oʻqing. Ikkinchi darajali boʻlaklarni aniqlang.

1. Shoxda jajji qushcha sayradi.
2. Tiniq suv shabadada jimirlaydi.
3. Tongda mayin shabada esadi.
4. Uzoqdan yoqimli kuy taraladi.
5. Qir-adirlar maysa bilan qopladi.





5-mashq. Topshiriqlarni bajaring.

- 1 **Sayroqi qushlar ko'm-ko'k bog'da tinmay sayradi.**
Gapning bosh bo'laklarini aniqlang.
- 2 **Zukko o'quvchilar qiziqarli kitobni maroq bilan o'qishdi.**
Gap tarkibidagi ikkinchi darajali bo'lak vazifasida kelgan so'zlarni shunday kamaytiringki, natijada gapning asosiy mazmuni o'zgarmasin.
- 3 **Mehnatsevar o'quvchilar bugun maktab bog'iga chiroyli gullar ekishdi.**
Gapning ikkinchi darajali bo'laklarini aniqlang.
- 4 **Bolalar o'ynadi.**
Ikkinchi darajali bo'laklar qo'shib, gap mazmunini to'ldiring.
- 5 **Dalalarda boychechak, chuchmoma, binafshalar ochildi.**
Gapning bosh bo'laklarini aniqlang.



6-mashq. Matnni o'qing. Sarlavha qo'yib, ko'chiring.


Biz oilamiz bilan sayr qilgani xiyobonga chiqdik. Xiyobondagi gulzor yorqin rangli gullarga to'la edi. Biz yo'lkadan yurib, gulzorning barcha go'zalligidan bahramand bo'ldik. Gullarning chiroyli ochilib turishi bizga juda yoqdi. Ularni mehr bilan parvarishlagan insondan chin dildan minnatdor bo'ldik.

- Birinchi gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklarini tegishlicha belgilang.



7-mashq. Soʻzlarni chizmalar bilan moslashtiring. Har bir chizmaga mos yana bittadan soʻz toping.

bogʻbonga



xatosiz



beparvolik



serhosil



8-mashq. Nuqtalar oʻrniga mos soʻzlarni qoʻyib, matnни koʻchiring.

Kuz manzarasi

Oʻlkamizga ... (*sariq, oltin*) kuz fasli kirib keldi. Havo ancha salqinlashib, atrofga ... (*chiroyli, yoqimli*) sokinlik yoyildi. Daraxt ... (*shoxlaridan, tanasidan*) sargʻish va qizgʻish yaproqlar asta-sekin yerga qoʻnmoqda. Kuzning bu fayzli² onlari ... (*qalblarga, yuraklarga*) iliqlik bagʻishlaydi.

- Gaplarning ikkinchi darajali boʻlaklarini aniqlang.

